

MUOMALA MADANIYATINING IFODALANISHIDA XUSHMUOMALALIKNING O’RNI

Mamajonova Muxayyo Maxamadjon qizi

O’zDJTU, Fransuz tili nazariy

fanlar kafedrası o’qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21296649>

Annotatsiya: Mazkur maqolada muomala madaniyatining shakllanishi va namoyon bo’lishida xushmuomalalikning tutgan o’rni lingvistik hamda lingvomadaniy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Xushmuomalalikning salomlashish, murojaat qilish, iltimos, minnatdorchilik, uzr so’rash, xayrlashish kabi nutqiy aktlar orqali ifodalanish xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, xushmuomalalikning milliy-madaniy qadriyatlar, kommunikativ me’yorlar va pragmatik omillar bilan uzviy bog’liqligi ochib beriladi. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy, pragmalingvistik hamda lingvomadaniy tahlil metodlaridan foydalanilgan. Natijada xushmuomalalik muomala madaniyatining asosiy tarkibiy unsurlaridan biri bo’lib, shaxslararo muloqotning samaradorligini ta’minlovchi muhim kommunikativ omil ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so’zlar: xushmuomalalik, muomala madaniyati, nutq, nutq madaniyati, odob, nutq jarayoni, xushmuomalalik elementlari, elitar nutq.

Annotation: This article talks about the role of politeness in language and literature, especially in works of art. The role of politeness in the culture of behavior is also considered. Using French and Uzbek works of art, some words that ensure polite communication between people are interpreted. The article also mentions scientific approaches to speech culture and behavior culture in the history of our nation.

Key words: politeness culture of behavior, speech, speech culture, manners, speech process, elements of politeness, elite speech.

Globalashuv va madaniyatlararo aloqalarning tobora kengayib borayotgan bugungi davrida shaxslararo muloqot madaniyati jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Muloqot jarayonining muvaffaqiyati nafaqat til birliklaridan to’g’ri foydalanishga, balki nutqning odob-axloq me’yorlariga, suhbatdoshga hurmat va e’tibor bilan munosabat bildirishga ham bevosita bog’liq. Shu jihatdan xushmuomalalikmuomala madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi bo’lib, insonlar o’rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim kommunikativ vosita hisoblanadi.

Muomala madaniyati til, tafakkur va madaniyatning o’zaro uyg’unlashuvi natijasida shakllanadigan murakkab ijtimoiy-lisoniy hodisadir. U jamiyat tomonidan e’tirof etilgan axloqiy me’yorlar, milliy qadriyatlar va kommunikativ qoidalarning nutqdagi ifodasini o’zida mujassamlashtiradi. Xushmuomalalik esa ana shu me’yorlarning amaliy ko’rinishi bo’lib, salomlashish, murojaat qilish, iltimos bildirish, minnatdorchilik izhor etish, uzr so’rash, tabriklash va xayrlashish kabi nutqiy vaziyatlarda yaqqol namoyon bo’ladi. Mazkur birliklarning qo’llanishi muloqot ishtirokchilarining yoshi, ijtimoiy mavqei, o’zaro munosabati hamda milliy-madaniy qadriyatlari bilan chambarchas bog’liq.

Zamonaviy tilshunoslikda xushmuomalalik pragmalingvistika, sotsiolingvistika va lingvomadaniyatshunoslik doirasida faol o’rganilayotgan masalalardan biridir. Chunki xushmuomalalik nafaqat nutq odobini, balki millatning madaniy tafakkuri, qadriyatlar tizimi va kommunikativ xulq-atvorini ham aks ettiradi. Har bir xalqning xushmuomalalikni ifodalash

usullari o'ziga xos bo'lib, ular milliy mentalitet va madaniy an'analar ta'sirida shakllanadi. Shu sababli mazkur hodisani lingvomadaniy nuqtai nazardan tadqiq etish nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolaning maqsadi muomala madaniyatining ifodalanishida xushmuomalalikning o'rni va funksiyalarini aniqlash, uning nutqiy hamda lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida tavsifiy, qiyosiy, pragmatik va lingvomadaniy tahlil metodlaridan foydalanilib, xushmuomalalikni ifodalovchi nutqiy birliklarning kommunikativ vazifalari hamda ularning muomala madaniyatini shakllantirishdagi o'rni yoritiladi. Tadqiqot natijalari muomala madaniyati nazariyasini rivojlantirish, shuningdek, ona tili va xorijiy tillarni o'qitishda kommunikativ hamda lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Tilning jamiyat hayotida tutgan o'rni juda beqiyosdir va u yordamida insonlar turli munosabatlarga kirishadilar. Mazkur insoniy munosabatlar paytida xushmuomalalik muhim ro'l o'ynaydi. Xushmuomalalikka bir qator olimlar o'zlarining ta'riflarini berganlar. Jumladan, Braun va Levinsonning fikriga ko'ra: "Xushmuomalalik, bu keng ma'noda, inson tili va madaniyatida juda keng tarqalgan kommunikativ hatti-harakatlar shaklidir; shuningdek, u insoniyat jamiyatining universal hodisasi sifatida tasdiqlangan". Yuqorida keltirilgan fikrdan ma'lumki, xushmuomalalik inson muloqotiga hos xususiyat bo'lib, u jamiyatda umumiy hodisa sifatida qaraladi.

Lakof xushmuomalalikka "shaxsiy muloqotda kelishmovchilikni kamaytirish uchun jamiyatlar tomonidan ishlab chiqilgan tushuncha" sifatida qaraydi.

Darhaqiqat, insonlar bir-biri bilan xushmuomalalik bilan aloqaga kirishsalar turli kelishmovchiliklar kamayadi, hatto umuman bo'lmasligi mumkin.

Ide xushmuomalalikni "ravon muloqot bilan bog'liq til" deb ifodalaydi". turibdiki, ravon so'zlash, so'zlarni o'z o'rnida ishlata bilish, muomala madaniyatiga ega bo'lish, o'zaro kelisha bilish qobiliyatiga ega bo'lish, shuningdek, o'zaro hurmat qilish va odob ila munosabatda bo'lish turli nizolarni oldini oladi va ma'lum darajada inson hayotining farovon bo'lishini ta'minlaydi. Har bir inson muloqot jarayoniga kirishar ekan, uning odob-ahloqi, tarbiyasi o'z nutqida namoyon bo'ladi.

G.O.Vinokurning fikricha esa so'zlovchining madaniyati uning lisoniy didi bilan belgilanadi.

Mazkur nutq jarayoniga e'tibor tarixan uzoq yillar oldin boshlangan. Hatto eramizdan avvalgi davrlardan boshlangan desak adashmaymiz. Rim siyosiy arbobi, notiq va yozuvchi Sitseron oratorlik haqida o'z qarashlarini namoyon etgan.

Xalqimiz tarixida esa X asrda M.Qoshg'ariyning nutq odobi, muomala madaniyati bilan bog'liq ilmiy asarlar yaratganligini shu o'rinda ta'kidlash joiz. XX asrning 70-80 yillariga kelib nutq madaniyati masalalariga e'tibor kuchaydi, bir qator olimlar yetishib chiqdilar. Buning natijasida ilmiy tadqiqotlar yanada ortdi.

Ma'lumki, tildagi rivojlanish va o'zgarishlar bevosita badiiy asarlarda ham o'z aksini topadi. Unda xushmuomalalikni ifodalovchi so'zlar asar muallifi, asar davri, qahramonlar nutqi orqali ifodalanadi. Agar XX asr o'zbek adabiy tili me'yorlarini bugungi til me'yorlariga solishtirsak, ijtimoiy munosabatlarning bunga ta'sir etganini ko'rishimiz mumkin. Masalan: A.Qodiriyning asarlari tili bilan bugungi adabiy tilga solishtirsak, nutq madaniyatida o'zgarishlar borligini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, tilda shunday elitar nutq madaniyati mavjudki unga O.B.Sirotina quyidagicha fikr bildiradi, "Elitar nutq madaniyati o'z suhbatdoshini hurmat qiladigan va har qanday muloqot vaziyatida tushunarli bo'lishga intiladigan kishi nutqida namoyon bo'ladi. Elitar nutq faqat elitar-oliy tabaqa vakillarigagina tushunarlidir. Elitar nutq madaniyatini badiiy asarlarda uchratish

mumkin. Ayniqsa, asarda oliy tabaqaga mansub bo'lgan qatlam qahramonlarni tanlagan yozuvchi o'z asarida mazkur nutqqa boshqalarga qaraganda ko'proq murojaat etadi.

O'rta asrlarda mavjud bo'lgan va hozirgi kunda faqatgina badiiy asarlardagina uchratish mumkin bo'lgan ba'zi yuqori tabaqa vakillarini ifodalovchi nomlar ham mavjud bo'lib, badiiy asarda kommunikatsiya jarayonini tashkil etishda bunday shaxslarga nisbatan martabasiga qarab «Duc — Gersog, duchesse — Gersoginya, Monsieur le Duc — janob Gersog, Madame la Duchesse — Gersoginya xonim», «Marquis — Markiz, Marquise — Markiza, Mon cher Marquis — qadrli janob Markiz, Ma chère Marquise — qadrli Markiza xonim», «Comte — Graf, Comtesse — Grafinya, Mon cher Comte — qadrli Graf, Ma chère Comtesse — qadrli Grafinya», «Baron — Baron, cher Monsieur — qadrli janob, Chère Madame — qadrli xonim» singari xushmuomalalik elementlarini qo'llagan holda murojaat qilinadi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rishimiz mumkinki, badiiy asarda yuqori tabaqadagi shaxsga nisbatan uning martabasidan kelib chiqqan holda turlicha xushmuomalalik elementlaridan foydalaniladi.²²

Quyida, yuqorida keltirilgan so'zlarning jahon adabiyoti durdonalaridan biri bo'lgan A.Dyumaning “Graf Monte Kristo” asarining fransuzcha va o'zbek tilidagi tarjimasidan misollar olgan holda tahlil qilinadi.

M. et madame de Villefort apprirent, en rentrant chez eux, que M. le comte de Monte-Cristo, qui était venu pour leur faire visite, avait été introduit dans le salon, où il les attendait ; madame de Villefort, trop émotionnée pour entrer ainsi tout à coup, passa par sa chambre à coucher, tandis que le procureur du roi, plus sur de lui-même, s’avança directement vers le salon.

Tarjimasi:

Vilfor rafiqasi bilan o'z honasiga qaytganda, graf Monte-Kristo kelib mehmonhonada kutib turganini habar berishdi. Nihoyatda hayajonga tushgan tushgan Vilfor honim shu ahvolda mehmonga ko'rinishni ep ko'rmay, yotoqxonasiga kirib ketdi; o'ziga ortiqcha bino qo'yg'an qirolik prokurori esa

to'g'ri mehmonhonaga yo'l oldi.

M.Bertuccio s'était surpassé lui-même pour le goût des ameublements et la rapidité d'exécution : comme autrefois le duc d'Artin fait abattre en une nuit une allée d'arbres qui gênait le regard de Louis XIV...

Tarjimasi:

Xonalarni bu qadar tezoblik bilan jihozlashda Bertuchcho nihoyatda zo'r hunar ko'rsatdi. Bir zamonlar gersok Atenskiy Lyudovik XIV ning ko'ziga hunuk ko'ringanidan butun boshli xiyobonni tekislab tashlashga buyruq bergani kabi...

- *Monsieur était venu pour le télégraphe ? dit-il.*
- *Oui, monsieur, si toutefois cela n'est pas défendu par les règlements.*

Tarjimasi:

- *Janoblari telegrafni ko'rishga kelganmidilar ? – so'radi chol.*
- *Ha, agar sizga buni man etishmagan bo'lsa...*

Yuqorida keltirilgan har uchchala misoldan ham ko'rishimiz mumkinki fransuz tilida har bir kishiga murojaat uchun ishlatiladigan monsieur, madame so'zlarining hammasi ham tarjima jarayonida o'z aksini topmagan. Shuningdek, biz yuqorida misollar keltirgan “Graf Monte Kristo” asari fransuz tilidan va o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmaganligi, rus tilidan o'zbek

tiliga tarjima qilinganligini ham hisobga olish joiz bo'ladi. Shuni ham ta'kidlash joizki, asardagi qahramon nutqining xushmuomalaligiga bu hol also salbiy ta'sir ko'rsatmagan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. M.B.Xolova “Ingliz va o'zbek badiiy asarlarida xushmuomalalik kategoriyasining lingvomadaniy va sotsiopragmatik xususiyatlari” Monografiya Buxoro Kamolot nashriyoti, 2023, 5 bet
2. Lakoff Robin. Language and Woman's Place. - New York: Harper and Row, 1975. - P. 64
3. Ide S. Formal Forms and Discernment: Two Neglected Aspects of Universals of Linguistic Politeness. Multilingua, 1989. – P. 7-1
4. Г.О.Винокур “Из беседы культуре речи/Русская речь” 1967
5. B.Qaraeva “O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda nutq madniyati shakllantirishning nazariyasi va amaliyoti.” (DcS) Toshkent-2022.
6. О.Б.Сиротина “Устная речь и типы речевых актов” М. 1995
7. Мустофокулов, Ф. Х. Kommunikatsiya jarayonida xushmuomalalikning ijtimoiy-lingvistik xususiyatlari—Молодой ученый. — 2020. № 47 (337). С. 542
8. Alexandre Dumas «Le Comte de Monto-Cristo» 1957 II tom
9. Aleksandr Dyuma «Graf Monte Kristo» 2023 II tom